

O'zbekiston: BMT huquqlar bo'yicha ekspertining adliya tizimi mustaqilligini baholash uchun birinchi tashrifi

JENEVA (2019 yil, 18 sentabr) – BMT maxsus ma'ruzachisi Diego Garsia-Sayan 2019 yil, 19-25 sentabr kunlari hukumat sudya va advokatlar mustaqilligi va yurist kasbida erkin faoliyat yuritilishi sohasida qabul qilgan choralarni baholash maqsadida rasmiy tashrif bilan O'zbekistonda bo'ladi.

Prezident Mirziyoyev 2016 yil dekabr oyida lavozimini egallaganidan beri O'zbekiston adliya tizimida uzoqni ko'zlagan islohotlarni boshlab yubordi.

“Tashrifim davomida sud-huquq sohasidagi islohotlarning sudyalarning mustaqilligi va hokimiyatlar ajratilganligi kabi prinsiplarga mosligini baholash maqsadida hukumat bilan konstruktiv muloqot o'rnatish niyatidaman,” - dedi Garsia-Sayan.

“Adliya tizimi doirasida sudyalarning, prokurorlar va advokatlar o'z kasbiy faoliyatini erkin olib borish imkoniyatiga ega bo'lishlari va vazifalarini bajarish chog'ida har qanday tahdid, ishlariga aralashuv yoki bosimdan ham qonunda, ham amalda muhofazalangan bo'lishlari lozim.”

[Sudyalarning kengashlari](#) sudlar mustaqilligi va avtonomligini kafolatlashda muhim ahamiyatga ega. “2017 yilda Sudyalarning Oliy kengashi mustaqil, sudlar mustaqilligini mustahkamlash va muhofaza qilish borasida keng vakolatlarga ega organ sifatida barpo etilganini ma'qullayman va sudyalarni tanlash, lavozimga tayinlash, malakalarini oshirish va intizomiy choralar ko'rish uchun mas'ul ushbu organning salohiyatini oshirish borasida amaliy tavsiyalar berishni istar edim.

“Shuningdek, men yuridik kasbda mustaqil faoliyat olib borishni, xususan, Advokatlar uyushmasining hukumat va boshqa ijroiya organlaridan mustaqil ekanligini ta'minlovchi huquqiy kafolatlar mavjudligini ham baholamoqchiman,” – dedi Garsia-Sayan. U hozirda yuridik kasb va bu kasb egalarining mustaqilligi va izchilligini ta'minlab himoyalashda hayotiy ahamiyatga ega advokatlar uyushmalariga bag'ishlangan [mavzuli hisobot](#) e'lon qilgan.

Tashrif davomida BMT eksperti hukumat va qonun chiqaruvchi hokimiyat rasmiylari, shuningdek sudyalarning, prokurorlar va advokatlar bilan uchrashadi. U, shuningdek, fuqarolik jamiyat, olimlar, BMT agentliklari, donorlar va diplomatik jamoa bilan ham uchrashadi.

Tashrif yakunida, 2019 yil, 25 sentabr, chorshanba kuni Garsia-Sayan dastlabki kuzatmalarini taqdim qilish maqsadida **matbuot anjumanini** o'tkazadi. Anjuman mahalliy vaqt bilan 10.15 da boshlanib O'zbekistonning Xalqaro matbuot klubida bolib o'tadi (Toshkent shahri, Shayxontohur tumani, Olmazor ko'chasi, 2-uy).

Maxsus ma'ruzachi natijalar va tavsiyalarni o'z ichiga olgan to'liq ma'ruzani Jenevadagi Inson huquqlari kengashiga 2020 yil iyun oyida taqdim etadi.

OXIRI

Janob Diego Garcia-Sayan [BMTning sudyalar va advokatlarining mustaqilligi bo'yicha maxsus ma'ruzachi](#) lavozimini 2016 yil dekabr oyida egallagan. Avval u ikki ketma-ket muddat Inson huquqlari Amerikalarda sud sudyasi bo'lgan. Lavozimdaligi paytida u Sudning vitse-prezidenti (2008-2009 yillar) va ikki ketma-ket muddat (2009-2013 yillar) Sud Prezidenti etib saylandi. U turli sharoitlarda, jumladan Birlashgan Millatlar Tashkiloti va Amerika Davlatlari Tashkiloti uchun inson huquqlari masalalari borasida ko'p yillik faoliyat tajriba egasidir. Boshqa vazifalar bilan bir qatorda u El-Salvadorida tuzilgan Tinchlik kelishuvlari tuzilishida va undan keyingi kelishuvlarni tasdiqlashda bevisita Xavfsizlik Kengashiga hisobot beruvchi BMT Bosh Kotibining vakili; bir necha yil davomida Zo'raki yoki ko'ngilli ravishda bedarak ketish bo'yicha ishchi guruh a'zosi bo'ldi; Birlashgan Millatlar Odil Sudlov tizimini qayta tuzish hay'atining 2006 yilda BMT Bosh Kotibi tayinlagan a'zosi; Gvatemalada yalpi saylov chog'ida Amerika Davlatlari Tashkilotining saylov missiyasining boshlig'i edi (2007).

Maxsus Ma'ruzachilar Inson Huquqlari Kengashining [Maxsus Jarayonlari](#), deb tanilgan narsaning qismi hisoblanadi. Maxsus Jarayonlar, BMT Inson Huquqlari tizimi ekspertlarining eng yirik organi bo'lib Kengashning dunyoning barcha qismlarida mamlakarlarga xos yoki mavzuli sharoitlar bo'yicha faktlarni aniqlovchi va monitoringni amalga oshiruvchi mustaqil ekspertlar jamoasidir. Maxsus jarayonlar ekspertlari ko'ngilli asosda islaydilar; ular BMT xodimlari emas va xizmatlari uchun haq olmaydilar. Ular har qanday huku, atdan yoki tashkilotdan mustaqil hisoblanadi va shaxiy vakolati asosida islaydilar.

BMT Inson Huquqlari, mamlakat sahifasi — [O'zbekiston](#)

Ko'proq axborot olish va OAV talablari uchun, marhamat, quyidagilarga bog'laning:
Toshkentda (tashrif davomida): janob Stefano Sensi (elektron poshta: ssensi@ohchr.org)
Jenevada (rashrifdan avval, davomida yoki undan keyin): janob Gotzon Onandia (gonandia@ohchr.org)

BMTning bo'shqa mustaqil ekspertlariga tegishli axborot talablari borasida, marhamat: janob Jeremy Laurence (+41 22 917 9383 / jlaurence@ohchr.org) bilan bog'laning

Twitter da BMTning mustaqil inson huquqlari ekspertlariga tegishli xabarlarni [@UN_SPExperts](#) kuzating.

Biz yashayotgan dunyo to'g'risida tashvishdamisiz? **Unda bugun kimningdir huquqlari himoyasiga SAFARBAR BO'LING.** #Standup4humanrights <http://www.standup4humanrights.org> veb adresiga murojaat qiling.